G‘O‘ZANING *G. HIRSUTUM* L. VA *G. TRILOBUM* L. TURLARIGA MANSUB NAV VA TIZMALARIDA BIR DONA KO‘SAKDAGI PAXTA VAZNI HAMDA 1000 TA CHIGIT OG‘IRLIGI BELGILARINING KO‘RSATKICHLARI

Axrorxo‘ja Turdialievich Xotamov - O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tayanch doktoranti
E-mail: axrorxujaxotamov@gmail.com

Xudoyberdieva Sevinch Muzaffar qizi, Ziyadullaeva Sevinch Shog‘dor qizi, Qahhorova Nilufar O‘ktam qizi – Guliston davlat pedagogika instituti “Biologiya” talim yonalishi I-bosqich talabalari.

Bizga ma’lumki bugungi kunda paxta xom ashyosiga va undan olinadigan mahsulotlarga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa paxtachilik sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlarimiz zimmasiga turli xil kasallik va tashqi stress omillarga bardoshli bo‘lgan yuqori va serhosil paxta navlarni yaratish vazifasini yuklaydi.

O‘zbekistonda paxtachilik sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri bu paxta ekin maydonlarini oshirmasdan turib paxta xom-ashyosining sifatini va hosildorligini oshirish, yuqori sifatli urug‘lik ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, tola sifati va chiqimini oshirish hamda er va suv resurslaridan oqilona foydalanish hisoblanadi [1, 2].

Ma’lumki go‘za selektsiyasi asosan miqdoriy belgilarga asoslangan, qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan, ya’ni tezpishar, hosildor, ko‘sak soni, 1000 dona chigit vazni, tola chiqimi va boshqa belgilari yuqori bo‘lgan shakllar va shakllarning o‘zaro duragaylarini tanlash asosida boyitiladi [3].

Adabiyotlarda bitta ko‘sakdagi paxta og‘irligining muhit sharoitlarida nisbatan kam o‘zgaruvchan belgi ekanligi qayd etilgan [4], [5], [6], [7].

Navning potentsial hosildorligini aniqlashning asosiy omili bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni va bitta ko‘sakdagi paxta vazni hisoblanadi. Bitta ko‘sakdagi paxta vazni o‘z navbatida bir qator tarkibiy qismlardan, xususan, chanoqlar soni, chanoqdagi chigitlar soni va vazni, lo‘ppaklar vaznidan iborat.[8]

O.J. Djalilov., K.E Mirzoyoqubov., Sh.B. Amanturdiev [9] ma’lumotlariga e’tibor berilsa, g‘o‘za o‘simliklarining bitta ko‘sakda ochilgan paxta og‘irligi va uning asosini tashkil etuvchi chigitlar vazni navning hosildorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatgichlari jumlasiga kiradi.

Xoliqova M., Umarova J., Raxmonova R.[10] Duragaylarda bitta ko‘sakdagi paxta xom ashyosi vaznini o‘rganish, ushbu belgining adabiyotlarda keltirilganingdek,

ko‘pchilik miqdoriy belgilar kabi poligen tabiatga ega ekanligi va yirik ko‘sakli ota-ona shakllarining ustunligida namoyon bo‘lishini ta’kidlagan.

O‘tkazilgan dala va laboratoriya tahlil ishlari – Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari [11], uslubiy qo‘llanmasidan foydalanildi.


Tadqiqotlarimiz 2023-yil PSUEAITI Sirdaryo ilmiy tajriba stantsiyasining o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida olib borildi.

Tadqiqotimiz ob’ekti sifatida g‘o‘zaning *G. hirsutum* L. turiga mansub o‘rta tolali An-Boyovut-2, Sulton, S-6524, Guliston, Buxoro-102, Yuksalish, Gulbahor-2, Sadaf, Kelajak, Samara, Shodlik-11 navlari va *G. trilobum* L. yovvoyi diploid turi ishtirokida olingan turlararo T-AX-S-1, T-AX-S-2, T-AX-S-3 tizmalari tanlab olindi.

Ushbu nav va tizmalar laboratoriya sharoitida bir dona ko‘sakdagi paxta vazni va 1000 ta chigit og‘irligi ko‘rsatkichi belgilari o‘rganildi.

Nav va tizmalarda bir dona ko‘sakdagi paxta vazni belgisining tahlil natijalari quyidagicha bo‘ldi (1-rasm).

1-rasm.




G. *hirsutum* L. va G. *trilobum* L. turlariga mansub nav va tizmalarida 1 dona ko‘sakdagi paxta vazni belgisining ko‘rsatkichlari.

Tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, o‘rganilgan namunalarda bir dona ko‘sakdagi paxta vazni belgisi bo‘yicha nisbatan yuqori ko‘rsatkich Buxoro-102 (7,9 g) navida, nisbatan past ko‘rsatkich esa T-AX-S-3 (5,4 g) tizmasida qayd etildi.

Namunalarning 1000 ta chigit og‘irligi belgisi bo‘yicha olingan tahlil natijalari esa quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

2-rasm.



G. *hirsutum* L. va G. *trilobum* L. turlariga mansub nav va tizmalarida 1000 dona chigit og‘irligi belgisining ko‘rsatkichlari.

O‘tkazilgan tahlil natijasiga ko‘ra 1000 ta chigit og‘irligi belgisi bo‘yicha nisbatan yuqori ko‘rsatkich Sulton (132,3 g) navida, nisbatan past ko‘rsatkich esa T-AX-S-3 (95,7 g) tizmasida namoyon bo‘ldi.

Laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan tahlil natijalariga asosan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, hosildorlikni belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar bitta ko‘sakdagi paxta og‘irligi va uning asosini tashkil etuvchi chigitlar vazni ekanligini hisobga olib, hosildorlikni oshirishda Buxoro-102 va Sulton navlaridan foydalanish yuqori natija berishi tajribamizda ham o‘z isbotini ko‘rsatdi. Ushbu navlardan hosildorlikni oshirish maqsadida olib boriladigan tajribalarda boshlang‘ich ashyo sifatida foydalanishni tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Boboev Ya.A., Kim R.G., Amanturdiev A.B. G‘o‘za mahsuldorligining boshqa qimmatli xo‘jalik belgilari bilan o‘zaro bog‘lanishi. /PSUEAITIning ilmiy asarlar to‘p. – Toshkent, 2002-y.62-67 b.

2. Имамалиев А. Научные основы высоких урожаев // Ж.: Хлопководство. - 1981. - №6. –С.6-7.

3. An, D. T. H., Ravikesavan, R., and Iyanar, K., 2008, Genetic advance and heritability as a selection index for improvement of yield and quality in cotton. J. Cotton Res. Develop., 22(1): 14-18.

4. Автономов В.А., Кимсанбаев О.Х., Тангиров З. Изменчивост и наследуемост массы хлопка – сырца одной коробочки на растении у межлинейных гибридов Ф 1-Ф2 хлопчатника // Теоретические и практические аспекты развития селекции и семеноводства хлопчатника и люцерны: Материалы Респ. науч.-прак. конф. –Ташкент, 2010. –С. 119-123.

5. Автономов В.А., Тангиров З., Каюмов У. Изменчивост и наследуемост продуктивности хлопка – сырца одного растения у межлинейных гибридов Ф1-Ф2 хлопчатника // Теоретические и практические аспекты развития селекции и семеноводства хлопчатника и люцерны: Материалы Респ. науч.-прак. конф. – Ташкент, 2010. – С. 123-128.

6. Айтжонов У., Бердиев Б. Методы выведения новых засухоустойчивых сортов хлопчатника // Состояние селекции и семеноводства хлопчатника и перспективы её развития: Материалы межд. науч. – прак. конф.–Ташкент, 2006. – С.182-183.

7. Saydaliev X., Ismoilov N., Tojiboev A. Ko‘sak vaznining irsiylanishi // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2005. №1. –B.15.

8. Usmanov S., Abdiev F., Amanov B., Xudoyqulov B., Raupov S. “Selektsiya va urug‘chilik sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. Toshkent, 2014 yil 18 dekabr. 126-b.

9. Джалилов О.Ж., Мирзоёқубов К.Е., Амантурдиев Ш.Б. Интеграция и стабилизация признаков у потомства синтетическихлиний хлопчатника при многократном отборе. Ўзбекистон аграр фани хабарномаси №1-2 (27-28) 2007й. 664-65б.

10. Xolikova M., Umarova J., Raxmonova R. Birinchi avlod g‘o‘za duragaylarida xosildorlik ko‘rsatgichlarining namoyon bo‘lishi “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” ga bag‘ishlangan “Qishloq xo‘jalik ekinlari mahsuldorligini oshirish muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.-Buxoro, 2009-y. 292-294 b.

11. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari G‘ Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. O‘zPITI, 2007-y . 147 b.